



DUDUQLANISHNING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA TURLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika :logopediya yo'nalishi
101-guruh talabasi Shavkatbekova
Odinaxon Mirzaakbar qizi
shavkatbekovaovdinov@gmail.com

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233777>

Annotatsiya. Ushbu maqolada duduqlanish, duduqlanish tarixi va kelib chiqish sabablari to'g'risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixika, nerv tizimi, nutq apparati, artikulyatsiya, muskul, tafakkur, nevropatologiya, psixologiya.

Duduqlanish, ya'ni nutq buzilishi ta'limoti qadimiy ta'limot hisoblanadi. Duduqlanish mohiyatini ko'p olimlar o'zlari yuritgan nazariyaga ko'ra fikrini bayon qilgan. Barcha olimlar turlicha mulohaza olib borgan. Xususan XIX-XX asrda markaziy va periferik nerv sistemasi bilan bog'liq buzilish deya ta'kidlangan.

Duduqlanish bu nutq apparatidagi muskul va pay tortilishi natijasida ovoz ohanggi sur'atining buzilishi hisoblanadi.

Qadimgi davrlarda Gippokratning ta'kidlashicha, markaziy nerv tizimi, ya'ni bosh miyada namlik to'planishi oqibatida kelb chiqishini aytib o'tgan. Namlik yig'ilishi nerv sistemasining nafaqat nutq sohasiga, balki butun organ sistemasiga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shuningdek bosh miyada namlik to'planishi turli virus va boshqa havfli holatlarga olib borishi o'rganib chiqilgan.

Rus olimi Santorimining fikriga ko'ra, qattiq va yumshoq tanglayni yoriqligi duduqlanishni asosiy sabablaridan ekanligini bayon etgan. Tanglayni yoriq bo'lishi rinolaliya deb nomlanadi. Bu holat og'ir nutq kamchiliklariga sabab bo'ladi. Ovoz ohanggi nutqni bayon qilayotganda tanglay yoriqligi sababli tovushlar boshqa holatda chiqqanligi uchun duduqlanishning asosiy sababi ekanligini aytib o'tgan. Shuningdek tilning og'iz boshlig'ida joylashgan o'rni, uning uzun yoki kalta ekanligini, ya'ni til yuganchasiga zich joylashganligi oqibatida kelib chiqishini Erve- de Sheguan aytib o'tgan. Bunday holatda tilning holatini tekshirish va ularga kerakli mashqlardan foydalanishi zarur ekanligi bizga ma'lum.

Boshqa tadqiqotchilar duduqlanishni harakat organlariga bog'liq holatda o'zgarishi natijasida yuzaga keladi deya bildirishgan. Tashqi artikulyatsion organlarning to'liq shakllanmaganligi duduqlanishga olib keladigan sabablardan biri hisoblanadi. Masalan, Vutser bildirgan fikrga ko'ra, pastki va yuqori jag'larning juda ham chuqur joylashganligi yoki aksincha juda ham tashqi joylashganligi deb belgilagan.

Duduqlanishni XX asrlarda 3 ta nazariyaga bo'lib o'rganildi.

1. Duduqlanish bu nutq markazlarini mivofiqshastiruvchi apparatning qo'zg'aluvchanligini zaiflashivu natijasida sodir bo'ladigan nevroz.
2. Duduqlanish bu ruhiy xarakterini assotsiativ bog'liqligini buzilishi hisoblanadi.
3. Duduqlanish bu atrof muhit ziddiyati tufayli kelib chiqadigan nerv tizimining buzilishi.

Duduqlanish alomatlari va sabablari.

Duduqlanish asosan maktab va maktabgacha bo'lgan davrda kuzatiladi. Bola grammatik so'zlarni to'g'ri qo'llay olganda uning so'zlashida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Duduqlanishning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri bolalarda hali to'liq rivojlanib bo'lmagan nerv sistemasini turli mexanik shikastlanishi hisoblanadi. Turli ijtimoiy vaziyatlar, ya'ni jamoaviy sharoitda qo'rqitish, vahima natijasida ularda hali shakllanib ulgimagan nutqni sustlashib qolishi natijasida yuzaga keladi. Oila vaziyatida janjallar bolaning nutq irodasini sinishiga yana bir asosiy sabablardan hisoblanadi.



Duduqlanuvchi bolalar so'zlaganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular og'ir va yengil holatda bo'lishi mumkin. Duduqlanuvchi bolalar 1- sonida og'zini ochiq qolishi, ya'ni mushaklarni qattiq tortishishi duduqlanishni yengil ko'rinishi bo'lishi mumkin. Bu holat nafaqat nutqda, balki tashqi ko'rinishda ham ko'zga ko'rinadi. Og'ir holatdagi duduqlanuvchida yuz ko'rinishini g'ayriodatiy o'zgarishlar, masalan yuzning judayam qizarib ketishi, yuz va ko'zning aylana muskullarining tortishishi, tez va ko'p terlash asosiy sabablardan hisoblanadi. Bunday bolalarda vegetativ asab sistemasini buzilganligi uchun yurak urishida, nafas olishda ham buzilishlar kuzatiladi. Bunday bolalar o'zlariga bo'lgan ishonchi kuchsiz, tuzalishiga bo'lgan ishonchi sust bo'ladi. Jamiyatda muloqotdan o'zlarini uzoqlashish, yolg'iz qolishni xohlashadi.

Hozirgi kunda duduqlanishning kelib chiqishi keltirib chiqaruvchi sabablar va moyillik sabablari ko'ra ajratiladi.

Moyillik sabablariga:

- Duduqlanuvchining Ota-onasining nevropatik kasallanishi, markaziy nerv sistemasini bo'shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv va yuqumli kasalliklar orqali bo'ladi.
- Duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik kasallanishi.
- Bunday holatga bolaning ichki qo'rquv, enurez, qo'zg'aluvchanlikning juda ham kuchliligi yoki sustligi kiradi.
- Konstitutsional moyillik. Markaziy va vegetativ nerv sistemasining zaifligi oqibatida yuzaga keladi.
- Nasliy buzilish. Tug'ma holatdagi nutq apparating kamchiligi, irsiy kasalliklar kiradi.
- Bolaning rivojlanish davrlarida turli murakkab o'zgarishlari. Xomila davrida bosh miya shakllanishida asfiksiya, ya'ni kislorod yetishmasligi natijasida yuzaga keladi.

Keltirib chiqaruvchi jismoniy sabablarga ko'ra:

- Bolaning yashirin, ruhiy siqilishi. Atrofdagilar bilan salbiy munosabat, bolaga bo'lgan e'tirozlar ruhiy siqilish, ichki sinishi kuzatiladi.
- Ijobiy emotsional munosabatlarning noto'kisligi. Hissiyotlarda zo'riqish kuzatiladi.
- Ruhiya va ijtimoiy sabablari. Oila muhiti noto'g'ri shakllantirilgani uchun bola tantiq, beo'xshov bo'lib qoladi. Bolaning bunday xolatda uzoq muddat ruhiy kechinmalarga yoki qisqa muddatli kechinmalarga beriladi.

Bolalarda duduqlanish keltirib chiqaruvchi asosiy sabablariga balog'at davrida ikki tillik hisoblanadi. Nutq shakllanayotgan davrda 2 dan ortiq til o'rganish bolaning nutq kamchiligiga olib keladi.

Duduqlanishning alomatlari 2 ga ajratiladi. Fiziologik(biologik) va psixologik(ijtimoiy) alomatlar hisoblanadi. Fiziologik alomatlariga nutqni bayon qilishda nutq organlarining muskullari tortishishi bilan bog'liq. Ijtimoiy alomat esa nutqni bayon qilishdagi iroda bilan bog'liq hisoblanadi.

R.E.Levina duduqlanadigan bolalarda nutqning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish g'oyasini ilgari suradi va uning izdoshlari duduqlanuvchi bolalarga psixologik vapedagogik ta'sirning yaxlit tizimini ishlab chiqdi.

Hozirgi kunda asosan duduqlanuvchi bolalar bilan turli qiziqarli, aqlni charxlovchi o'yinlar orqali logopedlar, nevroptologlar, psixologlar davolash ishlarini olib borishadi. Ularga turli maxsus sharoitlar yaratib ijtimoiylashuv orqali irodasini mustahkamlashga harakat qilinadi. Hozirgi kunda texnika kuchli rivojlanib bormoqda. Bolaning har tomonlama aqliy holatda ham, psixikasida ham xatto nutqida ham o'zgarishlar faol texnika bilan bog'liq asosiy muommoni shakllantirmoqda. Duduqlanuvchi bolalarda nafas tezligi kuzatilganligi sababli duduq bolalarda nafasni rivojlantiruvchi metodikalar o'ylab topildi va hozirgi kunda bu o'yinlardan foydalanilmoqda.



Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin har bir narsaning boshida aniqlangani ma'qul. Bolaga yoshlikdan e'tibor berish lozim. Duduqlanuvchi bolalar ham so'z shakllanayotgan vaqtda ko'zga tashlanadi. Ota onaning befarqligi juda katta alomatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bolalar bilan salbiy ohangda emas, aksincha ijobiy ohangda muloqotda bo'lishimiz kerak. Duduqlanuvchi bolalar bilan shug'ullanuvchi mutahassislar bilan ota ona ham birga harakat qilishi talab qilinadi. Hech qachon bolaning yoshligidan irodasi va o'ziga bo'lgan ishonchini sindirib qoyishga yo'l qoymasligimiz kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Y.AAYUPOVA Logopediya (2007)
2. Nevrapotologiya Majidov Toshkent 1986.y
3. Avisenna.uz sayti.